

№	Yo'nalish kodi	Ta'lim yo'nalishi nomi	Kunuzgi	Sirtqi	Egallaydigan kasbi
10	60610300	Axborot xavfsizligi (sohalar bo'yicha)	+		Muxandis-dasturchi

#### Yo'nalish tavsifi

Axborot xavfsizligi (axborot kommunikasiya texnologiyalari va servis) bakalavriatura ta'lim yo'nalishi fan – va texnika, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi yo'nalish bo'lib, u axborotni himoyalash sohasida tahdidlar mavjud bo'lgan sharoitlarda axborotlashtirish ob'ektlarini himoyalanganligini ta'minlash usullari, vositalari va texnologiyalarini yaratish, ishlab chiqarish va samarali joriy etish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Yuqorida keltirilgan kasbiy faoliyat sohasining axborot kommunikasiya tizimlari, axborot resurslari va axborot texnologiyalarida axborot xavfsizligini ta'minlash texnologiyalari va axborot himoyalangan tizimi, axborot xavfsizligini boshqarish ob'ektlarda, tadqiqot mavzusi bo'yicha xalqaro va milliy tajriba hamda ilmiy- texnik axborotni to'plash va o'rganish, axborot xavfsizligini tashkiliy – huquqiy ta'minotini amalga oshirish, axborot kommunikasiya tizimlarida texnik vositalar, qurilmalar bilan ishlash va axborotni to'plash, qayta ishlash va uzatish jarayonlarida axborotni himoyalash choralarini joriy etish kabi kasbiy faoliyati turlari bilan shug'ullanadi.